



Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining
2025-yil 25-avgustdagi 308-sonli buyrug'i

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM VAZIRLIGI

_____ viloyati/ Respublikasi

_____ tumani (shahar)

_____ maktabning

___ – “___” sinf rahbari

_____ ning

F.I.O

20___/20___ - o'quv yili uchun

SINF RAHBARI DAFTARI

Mazkur daftar sinf rahbarlari tomonidan qog'oz yoki elektron ravishda yuritilishi mumkin.

Sinf rahbari daftoriga ijodiy yondashilgan holda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Ushbu daftarning yuritilishi maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar

*bo'yicha o'rinbosari tomonidan o'quv yilining
har bir choragi yakunida nazorat qilinadi.*




2025-yil 25-avgustdagi 308-sonli buyrug‘iga asosan Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchi-yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil qilish va samaradorligini oshirish bo‘yicha sinf rahbarlari uchun

USLUBIY QO‘LLANMASIDAN OLINGAN

Sinf rahbar daftarining 2026-2027-o‘quv yili uchun hujjatlar ro‘yhati

1. Sinf rahbari to‘g‘risida umumiy ma‘lumot
2. Davlar ramzlari
3. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining 2025-yil 25-avgustdagi 308-sonli buyrug‘i
4. Sinf rahbari lavozim yo‘riqnomasi 2024-yil 17-apreldagi 122-buyruq
5. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari sinf rahbarlarining yillik faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari
6. Yil nomlari
7. MMTVning 2026-yil 19-yanvardagi 18-sonli buyrug‘i
8. 666-qaror sharhi 2022-yil kiritilgan o‘zgarishi bilan
9. Xavfsizlik texnikasi qoidalari
10. Kelajak soati ish rejasi
11. Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar rejasi
12. Sinf rahbarining 2026-2027-o‘quv yili uchun mo‘ljallangan yillik ish rejasi
13. Sinf o‘quvchilari haqida umumiy ma‘lumot
14. Sinf faollari haqida umumiy ma‘lumot
15. Sinfning ijtimoiy xaritasi
16. Takomillashtirilgan odob-axloq qoidalari 2023-yil 31-avgustdagi 282-son buyruq
17. Kam ta‘minlangan oilalar ro‘yhati
18. Yetim va ota-onalik huquqidan mahrum etilganlarning farzandlari
19. Sinf o‘quvchilarining to‘garak va seksiyalarga qatnashish darajasi
20. Ota-onalar bilan ishlash monitoringi
21. 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan sinf ota-onalar majlislar rejasi
22. Ota-onalar majlisi bayonnomasi
23. Sinf rahbarining 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan sinf majlislari rejasi
24. Sinf majlisi bayonnomasi
25. IIB profilaktika ro‘yxatida turadigan o‘quvchilar ro‘yhati
26. Maktab ichki ro‘yxatida turadigan o‘quvchilar ro‘yhati
27. Kundalik daftar yoki kundalik.com nazorati
28. O‘quvchilarning kitob bilan ta‘minlanganligi
29. Yillik hisobot

ZAMONAVIY SINF RAHBARINING KASBIY PORTRETI:



SINF RAHBARLIGIGA TANLOVNING ASOSIY MEZONLARI

- kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan
- maktabda asosiy xodim sifatida faoliyat olib borayotgan;
- boshqaruvchilik qobiliyatiga ega bo'lgan;
- o'quvchilar bilan ishlash jarayonida mas'uliyat bilan yondasha oladigan;
- umumta'lim muassasalarida soatbay (shu jumladan o'rindoshlik] asosda faoliyat olib boruvchi o'qituvchilarga sinfga rahbarlik qilishga yo'l qo'yilmaydi;
- boshlang'ich sinflarda sinf rahbarligi boshlang'ich sinfga birlashtirilgan o'qituvchilarga yuklatiladi

SINF RAHBARLARINING ASOSIY VAZIFALARI:

- odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga amal qilish, jamoada namunali bo'lish;
- ta'lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri sifatida o'ziga birlashtirilgan sinfdagi o'quvchilarning amalda belgilangan ta'lim va tarbiya olishlarini tashkil etish;
- o'quvchilarning o'sib-ulg'ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat qilish, yordamga muhtoj o'quvchilarga yakka holda yondashish asosida ular qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-oqibat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni uyg'otish;
- voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi borasida voyaga yetmaganlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishlari, o'quvchilar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha o'tkaziladigan "O'quvchi", "Davomat" kabi profilaktik reydlarda hamkorlik qilish

**Sinf rahbarlari o'zlariga yuklatilgan asosiy
vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni
amalga oshiradi:**

- har tomonlama yetuk, barkamol - ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;
- pedagog jamoa hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga qarab yondashishni yo'lga qo'yish
- ertalabki saflanishlarda sinf o'quvchilarining belgilangan tartibda to'liq ishtirok etishlarini ta'minlash
- birlashtirilgan sinf xonasidagi mavjud jihozlarning saqlanishini va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash
- sinf rahbarlari o'z faoliyatini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, umumiy rivojlanish darajasi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy ishlar va aniq mezonlar asosida tashkil etadi

FAOLIYAT YO'NALISHLARI

Vatanparvarlik ruhida arbiyalash

- o'quvchilarni Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash
- o'quvchilar ongiga buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg'ularini singdirish
- sinfda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish
- to'la oladigan shaxs sifatida shakllanishlari uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish
- o'quvchilarni o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy, milliy an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash

Ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik

- barkamol avlodni tarbiyalashda "Oila - mahalla - ta'lim muassasasi" hamkorligidagi jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish

- o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash
- o'quvchilarning ta'lim muassasasiga belgilangan maktab formasida kelishlarini nazorat qilish
- o'quvchilarning kundalik.com elektron platformasidan foydalanishini nazorat va tahlil qilish, o'quv qurollarining mavjudligi va to'g'ri tartibli saqlashlarini kuzatib borish, natijalarini ota-onalar bilan muhokama qilish
- o'quvchilarning turli salbiy diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish, ularda bu borada immunitet shakllanishi uchun targ'ibot ishlarini olib borish
- ota-onalar bilan hamkorlikda ota-onalar majlislari, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish
- darslarga surunkali va muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda ularning ota-onalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishvahuquq-tartibot organlari bilan hamkorlik qilish

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatga jalb etish:

- o'quvchilarning qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlariga qarab fan
- to'garaklari, sport seksiyalari, badiiy-estetik, texnik, ekologik, sayyohlik va o'lkashunoslik yo'nalishidagi to'garaklarga, klublarga jalb qilish
- qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish
- milliy madaniyatning asosi bo'lgan musiqa va qo'shiq, kino, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, teatr, naqqoshlik va me'morchilik kabi xalq amaliy san'ati turlari vositasida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish
- o'quvchilarni yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishini tashkil etish, kuzgi, qishki va bahorgi ta'til kunlarini mazmunli o'tkazishi uchun ota-onalar bilan hamkorlikda sharoit yaratish
- turli (bayramlar, ko'rik-tanlov, sport musobaqalari, uchrashuvlar, kechalar va boshqalar] ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda sinf o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlash

Mustaqilligimizning 35 yilligi

MUSTAQILLIK BAYRAMI MUBORAK!

*Yagona Vatan, yagona xalq,
buyuk kelajak!*

Mustaqilligimizning 35 yilligi — faxr va quvonch bayrami.
Bugungi yutuqlarimiz ertangi buyuk marralarga yo'l ochadi.
Jonajon O'zbekistonimiz doimo gullab-yashnasin!

35 yil





Mustaqillik tarixi: 1991–2026

Ozodlik yo'lidan taraqqiyot sari



MUSTAQILLIK SABOG'I

*Tarixni bilgan
avlod kelajakni
ishonch bilan
quradi.*



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING
KONSTITUTSIYASI

*Bir bo'lsak – yagona xalqimiz,
Birlasak – Vatanimiz!*



1991

31-avgust: davlat mustaqilligi e'lon qilindi. 1-sentabr Mustaqillik kuni deb belgilandi.



1991

18-noyabr: O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qabul qilindi.



1992

2-iyul: Davlat gerbi tasdiqlandi.
8-dekabr: Konstitutsiya qabul qilindi.
10-dekabr: Davlat madhiyasi tasdiqlandi.



2000-yillar

Iqtisodiy o'sish, ta'lim tizimidagi yangilanishlar va infratuzilma rivoji davom etdi.



2016-2026 -yillar

Islohotlar, ochiqlik, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro hamkorlik yangi bosqichga chiqdi.



2026

Mustaqillikning 35 yilligi — yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz birligining yorqin ifodasidir.



DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJI



Oliy Majlis – xalq irodasining ifodasi



Zamonaviy shaharlar – yangi qiyofa



Infratuzilma va transport taraqqiyoti



Ta'lim – kelajagimiz kafolati



Xalqaro hamkorlik – barqaror kelajak



XULOSA

Mustaqillik yurtning eng katta boyligi
va har bir fuqaroning mas'uliyatidir.



Bilim – kuch,
Ma'rifat – kelajak!

Mustaqil O'zbekiston –
buzuk kelajakka intilayotgan yurt!





Mustaqillik va yoshlar

Ta'lim, ilm-fan
va imkoniyatlar

1.



Yoshlar va kelajak

Mustaqillik yosh avlodga erkin fikrlash, orzu qilish va yuksak maqsadlar sari intilish imkonini berdi.



2.



Ta'lim

Maktablar, akademik litseyalar, texnikumlar va oliy ta'lim muassasalari yoshlarning bilim olishi uchun keng yo'l ochmoqda.



3.



Ilm-fan va texnologiya

Zamonaviy laboratoriyalar, axborot texnologiyalari va innovatsion loyihalar yurt ravnaqining muhim omilidir.



4.



Sport va madaniyat

Mustaqillik yillarida yoshlar sport, san'at va ijod sohalarida katta yutuqlarga erishmoqda.



5.



Yoshlar mas'uliyati

Bilimli, vatanparvar, tashabbuskor va halol bo'lish — mustaqil yurt yoshlariga xos fazilatdir.



**Bugungi yoshlar —
ertangi Yangi O'zbekiston
bunyodkorlari.**



Imkoniyatlar cheksiz!



Sifatli ta'lim

Zamonaviy bilimlar —
yorqin kelajakka yo'l.



Innovatsiya va texnologiya

Yangi g'oyalar —
yangi imkoniyatlar.



Tashabbus va liderlik

Yoshlar g'oyasi —
yurt taraqqiyotining boshlanishi.



Vatan uchun, xalq uchun!

Mustaqillikni asrash va rivojlantirish —
barchamizning burchimiz.



O'QI!



ORZU QIL!



HARAKAT QIL!



MUSTAQIL O'ZBEKISTON —



O'zbekiston Mustaqilligining 35 yilligi



Milliy g'urur, ozodlik va taraqqiyot

1



Tarixiy sana

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi. 1-sentabr esa Mustaqillik kuni sifatida nishonlanadi.



2



Mustaqillikning mazmuni

Mustaqillik — erkinlik, o'z taqdirini o'zi belgilash, milliy qadriyatlarni asrash va kelajakni bunyod etish demakdir.



3



Davlat ramzlari

Bayroq, gerb va madhiyamiz — xalqimizning sha'ni, g'ururi va birligining timsolidir.



4



35 yillik yutuqlar

Tinchlik, ta'lim, zamonaviy shaharlar, ilm-fan, sport va xalqaro hamkorlik — mustaqillik yillaridagi muhim yutuqlardir.



5



Yoshlar burchi

Bilim olish, Vatanga sadoqatli bo'lish, qonunlarga hurmat bilan qarash va yurt ravnaqiga hissa qo'shish — har bir yoshning vazifasi.



66

**Vatan ravnaqi —
yoshlar qo'lda!**

99



MUSTAQILLIK — ENG ULUG', ENG AZIZ NE'MAT!



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar
samaradorligini oshirish to‘g‘risida

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar hamda o‘quvchi yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, psixologlar ish faoliyatini tizimli tashkil etish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 2025-2026-o‘quv yilida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning namunaviy ish rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida 2025-2026-o‘quv yilida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning namunaviy ish rejasi 2-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari psixologining 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan namunaviy ish rejasi 3-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun “Kelajak soati” darslarining namunaviy mavzular ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida har haftaning juma kuni o‘tkazib kelinayotgan “Sinf soatlari” 2025-2026 o‘quv yili davomida har haftaning dushanba kuni birinchi soatida “Kelajak soati” darslari sifatida o‘qitiladi.

3. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarning davomatini yuritish, ta’limga to‘liq jalb etish hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan ishlar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi va O‘zbekiston mahallalari uyushmasining 2025-yil 7-maydagi 25 q/q, 28 q/q, 1 q/q va 08-06/17-son “O‘quvchilar davomatini yuritish, ta’limga jalb qilish ishlarini nazorat qilish va umumiy o‘rta ta’lim maktablarini huquqbuzarliklar holatidan kelib chiqib toifalash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan amalga oshirilsin.

4. Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov) maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarva "Kelajak soati" darslarini mazkur buyruq bilan tasdiqlangan namunaviy ish rejalar va namunaviy mavzular asosida samarali tashkil etilishini nazoratga olsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari boshliqlariga:

uch kun muddatda mazkur buyruqning mazmun-mohiyatini keng pedagogic jamoaga yetkazish, maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini yanada oshirish va tizimli tashkil etishda talablarga qat'iy amal qilinishini ta'minlash;

maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha tashkiliy choralar ko'rish;

mazkur buyruqda belgilangan vazifalar ijrosini sifatli amalga oshirish hamda belgilangan muddatlarda bajarilgan ishlar yuzasidan har chorakning yakuniga qadar vazirlikka ma'lumot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Belgilansinki, mazkur buyruqda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi barcha tashkilotlarning birinchi rahbarlari shaxsan mas'ul hisoblanadi.

7. Axborot xizmati (D.Sobirova) ushbu buyruqning mazmuni va unda belgilangan vazifalarning ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va vazirlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida yoritilishini ta'minlasin.

8. Protokol bo'limi (F.Keldibekov) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar

va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining ayrim buyruqlariga 5-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



E.Karimova

Toshkent sh.,
2025-yil “25” - avgust,
308-son

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi sinf rahbarining lavozim

YO'RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur yo'riqnoma umumiy o'rta ta'lim muassasalari sinf rahbarlarining (keyingi o'rinlarda sinf rahbarlari deb yuritiladi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlarini hamda ish faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Sinf rahbarlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyruqlariga, mazkur yo'riqnoma va boshqa normativ huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi.

2-bob. Sinf rahbarlariga qo'yiladigan talablar, ularning asosiy vazifalari va funksiyalari

3. Sinf rahbari quyidagi mezonlarga asosan tanlab olinadi:

- kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan;
- maktabda asosiy ishchi sifatida faoliyat olib borayotgan (*umumta'lim muassasalarida mehnatini soatbay (shu jumladan o'rindoshlik) asosda faoliyat olib boruvchi o'qituvchilarning sinfga rahbarlik qilishiga yo'l qo'yilmaydi*);
- boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan;
- o'quvchilar bilan ishlash jarayonida mas'uliyat bilan yondasha oladigan;
- boshlang'ich sinflarda sinf rahbarligi boshlang'ich sinfga biriktirilgan o'qituvchilarga yuklatiladi.

4. Quyidagilar sinf rahbarlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

ta'lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri sifatida o'ziga biriktirilgan sinfdagi o'quvchilarning (keyingi o'rinlarda sinf o'quvchilari deb yuritiladi) belgilangan ta'lim va tarbiya olishlarini tashkil etish;

odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga amal qilish, jamoada namunali bo'lish;

o'quvchilarning o'sib-ulg'ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat qilish, yordamga muhtoj o'quvchilarga yakka holda yondashish asosida ular qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-oqibat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni uyg'otish;

sinf o'quvchilarining ma'naviy va ma'rifiy tarbiyasini tashkil etishda o'qituvchilar, psixolog, ota-onalar va ularning o'mini bosuvchi shaxslar (keyingi o'rinlarda ota-onalar deb yuritiladi), ta'lim muassasasi rahbariyati orqali Bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar, mahalla, huquq-tartibot idoralari, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlash;

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi borasida voyaga yetmaganlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishlari, o'quvchilar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha o'tkaziladigan "O'quvchi", "Davomat" kabi profilaktik reydlarda hamkorlik qilish.

Sinf rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

5. Sinf rahbarlari o'zlariga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

har tomonlama yetuk, barkamol - ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;

pedagogik va o'quvchilar jamoasi hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga qarab yondashishni yo'lga qo'yish;

ertalabki saflanishlarda sinf o'quvchilarining belgilangan tartibda to'liq ishtirok etishlarini ta'minlash;

biriktirilgan sinf xonasidagi mavjud jihozlarning saqlanishini va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash;

sinf rahbarlari o'z faoliyatini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, umumiy rivojlanish darajasi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy ishlar va aniq mezonlar asosida tashkil etadi.

Jumladan:

a) o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'nalishida:

o'quvchilarni Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash;

o'quvchilar ongiga buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg'ularini singdirish, yurtimizdagi bunyodkorlik ishlari, inshootlar va ma'rifat maskanlari bilan ularni tanishtirib borish;

sinfda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish, tarbiya jarayoniga boy madaniy merosimiz, milliy odob-axloq me'yorlarini tatbiq etish, mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash;

o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan shaxs sifatida shakllanishlari uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish;

o'quvchilarni o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy, tarixiy, milliy an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash;

b) ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik yo'nalishida:

barkamol avlodni tarbiyalashda "Oila - mahalla - ta'lim muassasasi" hamkorligidagi Jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish, aniq belgilangan reja asosida sinf ota-onalar majlislarini o'tkazib borish;

o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash, jumladan, kam ta'minlangan oilalar farzandlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, ota-ona qarovisiz qolgan, vasiylik va homiylikka berilgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy huquqlarini himoyalash;

o'quvchilarning ta'lim muassasasiga belgilangan maktab formasida kelishlarini nazorat qilish;

o'quvchilar kundalik.com elektron platformasidan foydalanishini nazorat va tahlil qilish, o'quv qurollarining mavjudligi va to'g'ri tartibli saqlashlarini kuzatib borish, natijalarini ota-onalar bilan muhokama qilish;

o'quvchilarning turli diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish, ularda bu borada immunitet shakllanishi uchun targ'ibot ishlari olib borish;

ota-onalar bilan hamkorlikda ota-onalar majlislari, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish, o'tkazgan tarbiyaviy ishlari yuzasidan pedagogik kengashlarda hisobot berish;

darslarga surunkali va muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda ulaming ota-onalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish va huquq-tartibot organlari bilan hamkorlik qilish, natijalari bo'yicha direktor huzuridagi yig'ilishlarga ma'lumot kiritib borish;

o'quvchilarni ota-onalar va kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ruhida tarbiyalash, ularga kamtarlik, saxiylik va saxovatparvarlik, insonlarga yordam berish, mehribonlik, mehnatsevarlik xislatlarini singdirib borish.

Veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68, 91-397-77-37, 90-530-68-66 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi
134 listdan iborat 9-11-sinf rahbar daftarini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**


Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: HUMO

9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo‘ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to‘g‘arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO‘ ish hujjatlari**
- 11.O‘IBDO‘ ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo‘mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**

ONLINE KOMPYUTER XIZMARLARI

O'zbek va rus maktablar uchun

Buyutirma asosida

1-11-sinflar uchun barcha fanlardan **testlar**, **nazorat ishlar**, **to'garaklar**, **tezislar** va **yillik fan konspektlar**, **tadbir senariylari**, **ochiq dars ishlanma** va **slaydlar** (taqdimotlar), mikro darslar, talabalarning amaliyot hujjatlari, kurs ishi, loyha ishi, **ko'rgazma va tarqatmalar**, **faxriy yorliq**, **diplom**, **tashakkurnomalar** va boshqa hujjatlarni tayyorlab beramiz.

Tel:91669-34-74 Telegramdan:@talimxizmatlar izlab toping.

1–11 классов подготавливаем:

тесты по всем предметам

контрольные работы

кружковые занятия

тезисы

годовые конспекты по предметам

сценарии мероприятий

разработки открытых уроков

слайды и презентации

микроуроки

документы по практике студентов

курсовые работы

проектные работы

наглядные и раздаточные материалы

почётные грамоты

дипломы

благодарственные письма

другие документы

Телефон: 91 669-34-74

Ищите нас в Telegram: @talimxizmatlar